

**SHAXSIY ARXIV HUJJATLARINING TARIXIY-MADANIY AHAMIYATI**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab ijod etgan Mirzo Somiyning shaxsiy arxivi va uning tarkibidagi epistolyar meros tarixiy-manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Xususan, muallifning “San’ati maxzun” asari asosida maktub yozish an’analari va qoidalari yoritilib, amaliy misollar orqali izohlangan. Somiy tomonidan yozilgan hisobot maktublari tahlili orqali Buxoro amirligidagi boshqaruv tizimi, fuqarolarning murojaat qilish tartibi hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotga oid muhim ma’lumotlar ochib berilgan. Shuningdek, hujjatlarda aks etgan narx-navolar, xizmat turlari va ularning qiymati davr iqtisodiy holatini o’rganishda muhim manba sifatida baholangan. Maqola tarixiy manbalarni kompleks o’rganishning ahamiyatini ko’rsatadi.

**Kalit soʻzlar:** Mirzo Somiy, shaxsiy arxiv, epistolyar meros, “San’ati maxzun”, qoʻlyozma manbalar, tarixiy manbashunoslik, Buxoro amirligi, hisobot maktublari, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, arxiv hujjatlari, XIX–XX asrlar, maktub yozish an’analari.

**Аннотация:** В данной статье анализируется личный архив Мирзо Сомия, жившего и работавшего в конце XIX и начале XX веков, и содержащееся в нем эпистолярное наследие с историко-источниковой точки зрения. В частности, освещаются и объясняются на практических примерах традиции и правила написания писем, основанные на произведении автора «Санъати махзун». Анализ писем-отчетов, написанных Сомием, позволяет получить важную информацию об административной системе Бухарского эмирата, порядке обращения граждан и социально-экономической жизни. Также оцениваются цены, виды услуг и их стоимость, отраженные в документах, как важный источник для изучения экономической ситуации того периода. В статье показана важность всестороннего изучения исторических источников.

**Ключевые слова:** Мирзо Сомий, личный архив, эпистолярное наследие, «Санъати махзун», рукописные источники, историческое источниковедение, Бухарский эмират, отчетные письма, социально-экономическая жизнь, архивные документы, XIX–XX века, традиции написания писем.

**Abstract:** This article analyzes the personal archive of Mirzo Somiya, who lived and worked in the late 19th and early 20th centuries, and the epistolary legacy it contains from a historical and source perspective. Specifically, it highlights and explains, using practical examples, the traditions and rules of letter writing, based on the author's work "Sanati Makhzun." An analysis of Somiya's letter reports provides important insights into the administrative system of the Bukhara Emirate, the procedures for citizen appeals, and socioeconomic life. The prices, types of services, and their costs reflected in documents are also assessed as an important source for studying the economic situation of that period. The article demonstrates the importance of a comprehensive study of historical sources.

**Keywords:** Mirzo Somiy, personal archive, epistolary legacy, "Sanati Makhzun," manuscript sources, historical source studies, Bukhara Emirate, reports, socioeconomic life, archival documents, 19th–20th centuries, letter-writing traditions.

**KIRISH**

XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod etgan deyarli har bir taniqli ziyoli, yoki davlat arbobining shaxsiy kutubxonasi, yoinki, shaxsiy hujjatlar toʻplami boʻlgan. Ularning aksariyati bugungi kunga qadar yetib kelmagan boʻlsa-da, mavjudlarini oʻrganish boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar qoʻl bilan sanoqli. Shu nuqtai nazardan, Mirzo Somiy shaxsiy arxivi va undagi materiallarning tarixiy-manbashunoslik tahlili nafaqat muallifning hayoti va faoliyatiga oid

ma'lumotlarni, balki uning hali ilm ahliga yetarlicha ma'lum bo'lmagan epistolyar merosi, ijod namunalari va ularning tavsifini nazarda tutadi.

### MATERIALLAR VA METODLAR.

Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab ijod etgan Mirzo Somiyning shaxsiy arxivi va uning tarkibidagi epistolyar meros asosiy manba sifatida xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida Buxoro davlat muzeyida saqlanayotgan qo'lyozma hujjatlar, xususan, hisobot maktublari, murojaat (arz) shaklidagi yozishmalar hamda javob xatlari keng jalb etildi. Shuningdek, muallifning epistolyar yozish qoidalari bag'ishlangan "San'ati maxzun" asari nazariy manba sifatida tahlil qilindi. Mavzuni chuqurroq yoritish maqsadida Z.Sh. Hasanova, G. Ahrorova kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari ham o'rganildi.

Tadqiqotda bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, tarixiy-manbashunoslik tahlil metodi orqali arxiv hujjatlarining ishonchligi, mazmuni va tarixiy ahamiyati baholandi. Matnshunoslik (tekstologik) tahlil yordamida maktublarning tuzilishi, uslubi va yozilish qoidalari o'rganildi hamda ular "San'ati maxzun" asarida keltirilgan nazariy qarashlar bilan qiyoslandi. Qiyosiy tahlil metodi nazariy va amaliy materiallar o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash imkonini berdi. Tavsifiy (deskriptiv) metod orqali esa hujjatlarning tashqi xususiyatlari va mazmuni izchil bayon etildi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Somiyning boy adabiy merosi ko'pgina adabiyotshunos va tilshunos olimlar tomonidan ham o'rganilgan. Z.Sh. Hasanova Somiy ijodini tojik adabiyotida epistolyar uslub doirasida o'rgangan bo'lsa [6.14], G. Ahrorova uning boy adabiy merosini tadqiq etgan [1.20]. Z.Sh. Hasanova o'zining dissertatsiyasi doirasida XIX asr epistolografiyasi holati va unda Somiy ijodining tutgan o'rnini tahlil qilib, uning "San'ati maxzun" [Xazinadagi san'at] yoki [Xazinaga berkitilgan san'at] asarining epistolografiya sohasi va uning nazariy rivojlanishida tutgan o'rni, shuningdek, asarning adabiy va tarixiy ahamiyatini tadqiq etgan. Olima Mirzo Azimiddin Somiy XIX asrning ikkinchi yarmi epistolyar va badiiy adabiyotining taniqli nazariyotchisi, uning "San'ati maxzun" asari esa epistolyar adabiyotlarning eng sara an'alarini davom ettirgan ijod namunasi sifatida tan oladi [6.23].

Mirzo Somiy qalamiga mansub yozma meros namunalari hozirgi paytda O'zR FA Sharqshunoslik instituti, Buxoro davlat muzeyi va uning Buxoroda yashovchi avlodlari qo'lida saqlanmoqda.

Shaxsiy kolleksiya tarkibida Somiyning epistolyar merosi ham borki, ular Somiyning hisobotlari, javob maktublari va murojaat shaklidagi (arz) maktublarni o'z ichiga oladi. Somiyning epistolyar mazmunga ega hujjatlari turlari, ularni yozish qoidalari bag'ishlangan "San'ati maxzun" [Xazinadagi san'at] yoki [Xazinaga berkitilgan san'at] risolasini yozganini inobatga oladigan bo'lsak, uning epistolyar me'rosi XIX asr oxiri XX asr boshlarida mavjud bo'lgan maktub yozish qoidalari qat'iy amal qilib yozilganiga guvoh bo'lamiz. Chunki bu turdagi hujjatlarni bitishda muallif amal qilishi kerak bo'lgan qoidalar "San'ati maxzun"ning nazariy qismidagi, "Dar bayoni raviyai murosilot va tariqai mukotibot" (Yozishmalarning yo'llari va maktub yozishning usullari bayoni) nomli bobida keltirilgan bo'lib, unga ko'ra, maktub avvalida maktub turi, muallifning nomi, keyin esa maktub yo'llanayotgan shaxsning unvoni va xat yozishdan maqsad nima ekanligi bayon qilinadi [6.20].

Somiyning amir nomiga yozgan bir hisobot maktubini tahlil qiladigan bo'lsak, yuqorida keltirilgan qoidalarining amaliy ifodasini ko'ramiz. Qo'lyozma hujjat №11519/11 inventar raqami ostida, "Отчет на имя эмира мирзо Азима (Сомий) коровулбеги о проведении обычного хатма и хатм-и ходжа (Бахауддин) на мазаре ходжа Убайда Джарроха" nomi bilan saqlanadi [2]. Hujjat pasportida uning 1973-yilda Buxoro shahrida, Somiyning nevarasi M. Fayzullayevadan muzey xodimi I.Y. Idrisov tomonidan olingani, hujjat pasporti esa B.A. Qazoqov<sup>1</sup> tomonidan yozilgani qayd etilgan. Hujjat tojik tilida, nasta'liq xatida (shikasta

<sup>1</sup> B.A. Qazoqov (1936-2014) – buxorolik sharqshunos, manbashunos olim. 1990-2011 yillarda O'zR FA Sharqshunoslik institutining Buxoro muzeyi huzuridagi Sharq qo'lyozmalari bo'limi boshlig'i. Leningrad davlat universiteti (LGU) (Sankt Peterburg) sharq fakultetini tugatgan. O'tgan asrning 60-yillari oxirida Sovet Ittifoqining Erondagi elchixonasida bir muddat faoliyat ko'rsatgan. Leningradlik atoqli sharqshunos olim I.P. Petrushevskiy rahbarligida 1973-yil Leningrad davlat universiteti huzuridagi Ilmiy kengashda "Мавераннахр на рубеже XV-XVI

elementlari bilan), fabrika qog'oziga, qora siyohda yozilgan. O'lchami 44,5x17 bo'lib, 31 qatordan iborat. Hisobot saroy amaldori (عمالدار محرم [amaldori mahram]), qorovulbegi Mirzo Azim tomonidan yozilgan. Uning yozilgan sanasi keltirilmagan bo'lsa-da, uni Somiy saroy xizmatida bo'lgan vaqtda bitilganini inobatga oladigan bo'lsak, hujjat 1890-1900 yillar oralig'ida yozilgan. Somiy mazkur maktubida Xo'ja Ubayd Jarroh qabrida xatm-i Qur'on o'tkazish maqsadada davlat xazinisidan 100 tanganing Mirzo Nasrullo tomonidan olib berilgani va bu pullarning sarfi hisobotini yozgan. Maktub "Bandanavozo, arzi bandagi g'ulom rizojo'yi jonsipor Mirzo Azim qaravulbegi amaldor mahram ba janob olihazrat sayyid sohibam bo umid qabuli karam onki, umidgoho tasadduq sari muborak janobi oliy shavam..." jumlasini bilan boshlanadi va imoratpanoh Mirzo Nasrulloning duogo'ylarni mazor boshiga olib borib, janobi Oliy hazratlari nomiga xatm-i Qur'on qilib, duo olishni buyurganini yozadi. Maktubda, shuningdek, Qur'onning tilovat qilingan suralari, qorilarning ismlari, duogo'ylarning hatto necha halqa jahr qilgani ham keltirilgan. Shuningdek, duogo'ylar, mozor boshi xizmatchilari, mozor atrofi fuqarolari ham davlat-i oliy hisobidan yeb-ichib, duo qilib tarqalishgani va qilingan har bir sarf-xarajatning hisobi keltirilgan. Bulardan 20 tanga – uch yarim bosh (o'lchov birligi) guruch, 16 tanga – yarim bosh yog', 12 tanga – yarim bosh go'sht, 2 tanga sabzi-piyoz, 2 tanga – 16 ta tovoq, 2 tanga – nimchorak sham, 2 tanga – hezim (o'tin), 7 tanga – 100 adad non, 4 tanga – ikki chorak mayiz, 8 tanga - yarimta choy, 5 tanga – samovarchiga, 2 tanga – oshpazga, 14 tanga – 7 nafar qoriga sarf bo'lgani, jami 96 tanga bo'lib, qolgan 4 tanga mozorning supuruvchilariga taqsimlab berilgani yozilgan. Somiyning mazkur maktubi shunisi bilan ham ahamiyatli, unda bir qator qishloq xo'jalik mahsulotlarining narxlari, o'lchov birligi va ko'rsatiladigan ba'zi xizmatlarning narxlari mavjud. Bu esa o'z navbatida XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot, shu jumladan, narx-navoga oid asosli ma'lumotlarni beradi.

Somiy shaxsiy kolleksiyasidagi navbatdagi maktub Somiyning Xutfar tumanida olib borgan taftishi va uning hisobotiga oid[3]. Maktub tojik tilida, nasta'liq xatida bitilgan. Shuningdek, u fabrika qog'oziga qora siyohda yozilgan bo'lib, matn 43 qatordan iborat. Ushbu maktubning ham yozilgan sanasi ko'rsatilmagan. Taftishning Mirzo Nasrullo buyrug'iga binoan olib borilganiga qaraganda, mazkur hisobot ham yuqoridagi hisobot yozilgan davrga taalluqli deb o'ylaymiz. Maktubda Somiy Mirzo Nasrullobiyning buyrug'i bilan davlatxonai oliydan chiqqan arizasi asosida so'rov (ya'ni taftish) olib borganligi hisoboti keltirilgan. Taftish tuman qozisi Mullo Safarning faoliyatiga oid bo'lib, tuman ahli qozining faoliyatidan norozi bo'lganligi sabab, taftish tayinlangan. Maktubdagi ma'lumotlarga qaraganda, "...qozi Mullo Safar dastlab qozilik lavozimini olganidan so'ng, ikki-uch oy xalqning murodini yaxshi tushunib, mohirona faoliyat yuritib, fuqarolarni ranjitmay kelgan. Janobi oliy (amir) muborak safarga chiqqanlaridan so'ng qozi xalqqa tajovuz qilib, imkon topdi deguncha ko'proq narsalarni talab qilib, ba'zi insonlarni izza qilib kelgan". Shundan so'ng, Somiy Peshko' xonaqosida yaqin atroflardan kelgan fuqarolarni yig'ib, qozining ahvolini ehtiyot bo'lib so'raydi. Keyingi kun esa Zandani bozoriga kelib, u yerdagi uzoq-yaqindan kelgan barcha fuqarolardan qozining faoliyatiga oid ma'lumotlarni to'playdi va bu ma'lumotlarni hisobot maktubida keltiradi. U maktubda "...To'qqiz oy davomida davlatxona-i oliyga (saroyga) o'n to'rt xurjun narsa tortiq qildik. Agar ko'p olmasam qayerdan beraman", – deb qozining o'zini oqlash maqsadida aytgan fikrlarini keltiradi. Bundan tashqari, Somiy maktubda tumandagi vayron bo'lgan ko'priknig ham, saroydan amlodkorlar va qozi nomiga kelgan muboraknoma-i oliyga ko'ra, ta'mirlangani va uni ta'mirlashda qozi va

---

веков" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. B.A. Qazoqov sovet davrida temuriylar zamoni tarixi bilan shug'ullangan o'zbek olimlaridan biri. Shuningdek, ilmiy faoliyatining katta qismi O'rta Osiyo diplomatikasi (hujjatshunosligi) masalalariga bag'ishlangan. Qarang: Казаков Б.А. Документальные памятники Средней Азии. – Ташкент: Узбекистан, 1987; Казаков Б.А. Опыт описания среднеазиатских актов (Вопросы периодизации, классификации, номенклатуры и каталогизации) // Материалы Всесоюзного рабочего совещания по проблемам восточной археологии. Ленинград 1-4 марта 1988 г. – Москва: Всесоюзная ассоциация востоковедов АН СССР, 1990. – С. 82-92; Bahadir Kazakov. Bukharan Documents: the collection in the District Library, Bukhara. Translated from the Russian by Jurgen Paul. – Berlin: Verlag Das Arab/ Buch, 2001. Казаков Б.А. Документальное источниковедение Узбекистана XVI-XIX веков: вопросы теории и методики (Диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук. 2004). (B.A. Qazoqov sog'ligining yomonlashuvi tufayli himoya qilinmay qolgan ushbu doktorlik dissertatsiyasi olimning shogirdi H. To'rayev tomonidan nashrga tayyorlanmoqda).

amlokdorlar mas'ul kishilarni tayinlab, xarajatlar uchun aholidan hech narsa olishmaganini yozgan. Shuningdek, maktubda tumandagi do'konlar, ular ahvoli, tumanning ko'zga ko'ringan insonlarining qozi va uning faoliyatiga oid fikrlari, Somiy xizmati evaziga qozi tomonidan berilgan 200 tanga haqida hisobot beriladi.

Somiy tomonidan yozilgan mazkur hisobot xarakteridagi maktub va uning mazmuni amirlikda mavjud bo'lgan fuqarolarning davlat idoralariga murojaat qilish tartibi va ushbu murojaatlarning saroy amaldorlari tomonidan o'rganilib, tegishli surishtiruv ishlarini tashkil etish orqali oddiy fuqarolarning talab va ehtiyojlarini qondirish tartibi haqidagi ma'lumotlarni taqdim etadi.

Somiyning shaxsiy arxivida saqlanayotgan hujjatlar, ayniqsa, hisobot maktublari, murojaat shaklidagi yozishmalar va javob xatlar o'sha davr ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotini o'rganishda noyob manba ekanligini tasdiqlaydi. Bu hujjatlar orqali Buxoro amirligida davlat boshqaruvi tizimi, amaldorlar faoliyati, fuqarolarning murojaat qilish tartibi, shuningdek, nazorat va tekshiruv mexanizmlarining amalda qanday ishlaganini aniqlash mumkin bo'ldi. Ayniqsa, Somiyning amir nomiga yozgan hisobotlari davlat apparatining ichki ishlash jarayonlari haqida aniq va ishonchli ma'lumotlar beradi.

Shuningdek, maqolada tahlil qilingan hisobot maktublari orqali o'sha davr iqtisodiy hayoti haqida ham muhim ma'lumotlar aniqlandi. Xususan, oziq-ovqat mahsulotlari, xizmat turlari va ularning narxleri, o'lchov birliklari kabi ma'lumotlar iqtisodiy tarixni o'rganishda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Bu ma'lumotlar orqali nafaqat narx-navoning umumiy darajasi, balki aholining turmush darajasi, iste'mol madaniyati va iqtisodiy munosabatlar tizimi haqida ham tasavvur hosil qilish mumkin. Bundan tashqari, Somiyning taftish hisobotlari orqali Buxoro amirligida adliya tizimi va mahalliy boshqaruv organlari faoliyatini baholash imkoniyati paydo bo'ldi. Xususan, qozilar faoliyati ustidan nazorat, fuqarolarning shikoyatlari asosida tekshiruvlar o'tkazilishi, hamda natijalarning yuqori boshqaruv organlariga yetkazilishi davlat boshqaruvida muayyan darajada javobgarlik va hisobdorlik tizimi mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida, o'sha davr jamiyatida huquqiy munosabatlarning ma'lum darajada rivojlanganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, Mirzo Somiyning epistolyar merosi o'z davrining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotini yoritishda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan noyob tarixiy manbadir. Uning "San'ati maxzun" asari esa epistolyar madaniyatning nazariy asoslarini belgilab bergan muhim ilmiy asar sifatida alohida o'rin tutadi. Tadqiqot natijalari ushbu merosni yanada kengroq o'rganish va ilmiy muomalaga kiritish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida, milliy tariximiz va madaniy merosimizni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ахорова Г. Сомий и его литературное наследие: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1988., Ахорова Г. Мирзо Азим Сомий ижодида давр танкиди //Адабий мерос. 1989. – №1.
2. Вухоро музеи қо'lyozmasi. Inv. № 11519/11
3. Вухоро музеи қо'lyozmasi. Inv. № 13373/11(5) (Докладная мирзо Азима о выполнении поручения).
4. Казаков Б.А. Документальные памятники Средней Азии. – Ташкент: Узбекистан, 1987;
5. Казаков Б.А. Опыт описания среднеазиатских актов (Вопросы периодизации, классификации, номенклатуры и каталогизации) // Материалы Всесоюзного рабочего совещания по проблемам восточной археографии.
6. Ҳасанова З.Ш. Сомий и теория эпистолярного стиля в таджикской литературе XIX в.: Автореф. ... канд. филол. наук. – Душанбе: 1976.